

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘zbek tili fakulteti**

**O‘zbek tili kafedrası**

**O‘ZBEK VA RUS TILLARINING QIYOSIY TIPOLOGIYASI**

**O‘qituvchi sillabusi**

**Tuzuvchi: Asilova Gulshan Asadovna**

<b>Fan/modul kodi</b> 1O‘RQT15M	<b>O‘quv yili</b> 2020/2021	<b>Semestr</b> 1, 2 (kuzgi, bahorgi)	<b>ECTS – Kreditlar</b> 15	
<b>1-2 semestrda ECTS – Kreditlar soni</b> 5 + 5	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 2	
<b>Fanning darajasi</b> Maxsus darajadagi fan – 400	<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Modul rahbari</b> ped.f.d. G.Asilova gulshanasilova@gmail.com	
<b>Universitet kampusi</b> 4-bino	<b>Hafta kunlari</b> Seshanba, payshanba		<b>Vaqt</b> Kunning 1-yarmi	
	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<i>O‘zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi</i>	<i>1, 2-semestr 40</i>	<i>1, 2-semestr 90</i>	<i>1, 2-semestr 130</i>
<b>1- semestr</b>	1-modul	20	45	65
<b>2- semestr</b>	2-modul	20	45	65
	<b>JAMI</b>	40	90	130

**Fanning tavsifi**

“O‘zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi” o‘quv fani oliy ta’lim muassasalari talabalarini ilmiy-pedagogik faoliyat yuritishga tayyorlaydi. O‘zbek va rus tillarining fonetik, leksik va grammatik tipologiyasini o‘rganish o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishning samaradorligini oshiruvchi metodlar haqida tushuncha hosil qilish, qiyosiy tipologiyaga oid ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishda amaliy va nazariy yordam beradi.

**Fanning mohiyati**

Ushbu fanni o'rganish talabalarda o'zbek va rus tillarini qiyosiy-tarixiy metod yordamida tadqiq etish, qiyosiy tipologiyaning ilg'or metodlarini pedagogik amaliyotda qo'llash ko'nikma-malakalarini shakllantiradi.

**Fanning natijasi**

Talabalar o'zbek va rus tillarining strukturasi va grammatik qurilishiga xos xususiyatlarni, tarkibiy-tipologik o'xshashliklari va farqlarini bilib oladilar; o'zga tilli auditoriyada o'zbek tili ta'limida tipologik metodlardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar; o'zbek va rus tillarining tarkibiy tuzilishi, til vositalari va ifoda vositalaridagi o'xshashliklar hamda farqlarni aniqlash; o'zbek va rus tillarida muvofiq ekvivalentlarni to'g'ri tanlash malakalariga ega bo'ladilar.

**Baholash mezonlari**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrdagi 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash ON, YN dan iborat.

**A. Baholash**

1) ON (oraliq nazorat) – 40 %, jumladan:

- ma'ruzalarda faol ishtirok etish – 5%,
- amaliy topshiriqlarni bajarish – 5%,
- mavzular yuzasidan test bajarish – 30%;

2) YN (yakuniy nazorat) testini bajarish – 60%.

**B. Baholash**

<b>Baholash usullari</b>	<b>Og'zaki so'rov, taqdimotlar, yozma topshiriqlar</b>
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari Baholash turlari og'zaki va yozma so'rovlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, test ko'rinishida o'tkazilishi mumkin. Baholashda, asosan, mustaqil fikrlash va tanqidiy mulohazani o'zida ifodalagan mukammal ish bajarilishi inobatga olinadi. Qo'yilgan masalalar talaba tomonidan tegishli metodologiya, uslub va ma'lumot manbalaridan foydalangan holda, ishonchli dalillar asosida ochib berilishiga e'tibor qaratiladi.
5 (A)  100 – 86	Ish yetarli darajada mustaqil va tanqidiy fikr-mulohazalarni, analiz va sintez qilish qobiliyatini, mantiqiy izchillikni, qator manbalardan foydalanilib keng mushohada yuritishni hamda mavzuni mukammal tushunishni namoyon etadi. Shuningdek, ish juda yaxshi tadqiq qilinib, javobda asosli mulohazalar bildirilgan bo'ladi. Ushbu ish original va talqin mohirona olib borilganligi, tadqiqot tanqidiy tahlil va tanqidiy baholash orqali zarur tadqiqot metodologiyasi, uslublari va manbalaridan foydalanilgan holda yondashilganligi bilan ajralib turadi. Ish yuqori ta'lim standartlari asosida yozilgan bo'lib, birmuncha tahrir qilish orqali mukammal darajaga yetkazilishi mumkin.
4 (B)  85 – 71	Ish mavzuning aniq anglanganligi va tadqiqot sohasidagi munozaralarda tanqidiy ishtirok etish imkoniyatini ifoda etib, malakali va metodologik xususiyatga ega. Asosiy mulohazalar aniq, misollar hamda asoslar o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlarga qaraganda pastroq sifatda va unchalik original emas. Ishda fikrlar yaxshi tartibda keltirilgan, bayon aniq hamda mantiqan izchil, kirish va xulosa qismlari ravon ifodalangan.

	Manbalardan yuqori darajadagi ishlardek tizimli yondashilmagan bo'lsa-da, o'rinli qo'llanilgan. Ish "A" darajadagi ishlar kabi izchil bo'lmasa-da, tahliliy qobiliyatni namoyon etadi. Ushbu ish yaxshi ta'lim standartlarini o'zida ifodalagan holda jiddiy grammatik va sintaktik xatolardan holi ravishda yozilgan.
3 (C)  70 – 56	Ishda ishonchli talqin va asoslar keltirishda xatolarga yo'l qo'yilgan. Savolga qisman javob berilgan. Ish asosan bayoniy tarzda (tahlildan holi) ifodalangan. Mantiqiy bog'lash yetarli darajada emas. Ba'zi xulosalar xato keltirilgan. Ushbu darajadagi ishlar muammo mavzusini bazaviy anglashni va bilimni qo'llash bo'yicha ma'lum ko'nikmalarni namoyon etadi. Manbalar ko'rsatilmagan yoki to'g'ri ko'rsatilmagan yoxud yetarli darajada ko'rsatilmagan. Ushbu ish qoniqarli talablar asosida, biroq bir qancha grammatik va sintaktik xatolarga yo'l qo'yilgan holda yozilgan.
2 (D)  55 – 49	Ish talabga javob bermaydi (nazoratdan o'tmagan). Ishning katta qismida mavzudan chetga chiqilgan, markaziy fikr mavjud emas, manbalar va havolalardan noizchil yoki yetarli darajada foydalanilmagan hamda grammatik va sintaktik xatolarga takror-takror yo'l qo'yilgan. Mulohazalarni bazo'r fahmlash mumkin, juda yomon tartibda berilgan, fikrlarni anglab olish mushkul yoki anglashning imkoni yo'q. Ish mavjud g'oyalarni tanqidiy fikrlashsiz takrorlaydi. Ish ko'plab isbotlanmagan qarashlar va bayonotlarni o'z ichiga olib, dalillar keltirilmagan yoki asossiz va cheklangan.

**Ta'lim berish va o'qitish metodlari:** interaktiv ma'ruzalar, videodarslar, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim, muammoli ta'lim texnologiyalari, qiyosiy tahlil metodi, mustaqil ish shakllarini bajarish.

**Kalit so'zlar:** qiyosiy tipologiya, tillar tasnifi, genealogik tasnif, morfologik tasnif, tipologik tahlil, agglutinativ til, flektiv til, fonetik tahlil, leksik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil.

### Mavzular ro'yxati

#### 1. "O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari 1-semestr

	Mavzular	Dars soatlari hajmi
<b>№</b>	<b>1-modul</b>	<b>20 soat</b>
1	Qiyosiy tipologiya fanining maqsadi va vazifalari.	2
2	Tillarni tasniflash tamoyillari. Genealogik tasnif.	2
3	Tillarning morfologik tasnifi.	2
4	O'zbek va rus tillarining fonetik tipologiyasi.	2
5	O'zbek va rus tillarining leksik tipologiyasi.	2
6	O'zbek va rus tillarida polisemiya, sinonimiya, antonimiya, omonimiya.	2
7	O'zbek va rus tillarida so'z yasash tipologiyasi.	2
8	O'zbek va rus tillarining morfologik tipologiyasi.	2
9	O'zbek va rus tillarida otlarning tipologiyasi.	2
10	O'zbek va rus tillarida otlarning turlanishi.	2

## 2-semestr

	Mavzular	Dars soatlari hajmi
<b>№</b>	<b>2-modul</b>	<b>20 soat</b>
1	O'zbek va rus tillarida sifatlarning tipologiyasi.	2
2	O'zbek va rus tillarida ravishlarning tipologiyasi.	2
3	O'zbek va rus tillarida sonlarning tipologiyasi.	2
4	O'zbek va rus tillarida olmoshlarning tipologiyasi.	2
5	O'zbek va rus tillarida fe'llarning tipologiyasi. Harakat nomi va unfinitiv.	2
6	Fe'l zamonlari.	2
7	Fe'l mayllari va nisbatlari.	2
8	Fe'llarning tuslanishi.	2
9	Sifatdosh. Ravishdosh.	2
10	O'zbek va rus tillarida yordamchi so'z turkumlarining tipologiyasi.	2

### Fan bo'yicha savollar to'plami

1. "O'zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi" fanining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Qiyosiy tipologiya nimani o'rganadi?
3. Dunyo tillarining tasniflanishi haqida gapirib bering.
4. Tillarning geografik tasnifi haqida gapirib bering.
5. Tillarning funksional tasnifi nimaga asoslanadi? Misollar keltiring.
6. Tillarning genealogik tavsifi kimlar tomonidan amalga oshirilgan?
7. Tillarning tipologik tasnifi qaysi mezonlarga asoslanadi?
8. Tillarning fonetik tizimiga qiyosiy tavsif nimaga asoslanadi?
9. O'zbek va rus tillari unlilar tizimsiga qiyosiy tavsif bering.
10. O'zbek va rus tillari undoshlar tizimsiga qiyosiy tavsif bering.
11. Faqat o'zbek tiliga xos bo'lib, rus tilida mavjud bo'lmagan undoshlar qaysilar?
12. O'zbek tilida mavjud bo'lmagan **ы, и, ш** undoshlarining xarakterli jihatlari nimada?
13. Rus tilida undoshlar jaranglilik-jarangsizlik belgisidan tashqari yana qanday ziddiyatda turadi?
14. Qattiq va yumshoq juftlikni hosil qiluvchi tovushlar ishtirokidagi ruscha so'zlarga misollar keltiring.
15. Rus tiliga turkiy tillardan o'zlashgan so'zlarning talaffuzidagi o'zgarishlarni izohlang.
16. O'zbek va rus tillaridagi bo'g'in va urg'uga qiyosiy tavsif bering.
17. O'zbek va rus tillarining leksik qatlamlariga qiyosiy tavsif bering.
18. O'zbek tiliga rus tilidan va shu til orqali o'zlashgan so'zlar qanday fonetik o'zgarishlarga uchragan?
19. O'zbek va rus tillarida omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalariga qiyosiy tavsif bering.
20. O'zbek va rus tillarida mavjud o'zakdosh antonimlarning farqli jihatlari nimalardan iborat?
21. O'zbek va rus tillarida omonimlarning lug'aviy, uslubiy va grammatik xususiyatlari o'rtasidagi umumiylik va xususiyliklarni ayting.
22. O'zbek va rus tillaridagi frazeologik iboralar semantik jihatdan o'zaro qiyoslanganda qanday tafovutlar yuzaga chiqadi?
23. Frazeologik sinonimiya, frazeologik omonimiya, frazeologik antonimiya hodisalari o'zbek tilidagi kabi rus tilida ham mavjudmi? Ularga rus tilida misollar keltiring.

24. O'zbek va rus tillarida so'z va so'z shakllar dastlabki bo'linishda qanday qismlarga ajratiladi? Ular o'rtasidagi tafovutlarni tushuntiring.
25. Qo'shimchalar o'zbek va rus tillarida qanday turlarga ajratiladi? Ularga misollar keltiring.
26. Rus tilidagi suffikslar vazifasiga ko'ra o'zbek tilidagi qaysi qo'shimchalarga o'xshaydi?
27. Rus tiliga mansub bo'lgan tugalmaga ta'rif bering. Uning o'zbekcha qo'shimchalardan qanday farqi bor?
28. So'zlarni turkumlarga tasniflashda ularning qanday jihatlari e'tiborga olinadi?
29. O'zbek va rus tillarida otlarga xos bo'lgan grammatik kategoriyalar haqida gapirib bering.
30. O'zbek va rus tillaridagi son kategoriyasining o'xshash va farqli jihatlari haqida gapiring.
31. Rus tiliga xos bo'lgan rod kategoriyasiga ta'rif bering.
32. Rus tilidagi turdosh otlarning jonli va jonsiz otlar guruhlariga ajratilishining sababi nimada?
33. O'zbek va rus tillaridagi kelishiklarga qiyosiy tavsif bering.
34. O'zbek tiligagina xos bo'lgan egalik kategoriyasining rus tilida ifodalanishiga misollar keltiring.
35. O'zbek tilidagi otlarning o'ziga xos (ruscha otlarda mavjud bo'lmagan) xususiyatlari haqida gapiring.
36. O'zbek va rus tillaridagi sifatlarga qiyosiy tavsif bering.
37. Rus tilidagi sifatlarning maxsus grammatik ko'rsatkichlari haqida gapiring.
38. O'zbek va rus tillarida sifat+ot moslashuvida qanday farqlar bor?
39. O'zbekcha va ruscha sifatlarning darajalanishi o'rtasidagi tafovutlarni tushuntiring.
40. Rus tiligagina xos bo'lgan egalik sifatlari (притяжательные прилагательные) haqida gapiring.
41. O'zbek va rus tillaridagi ravishlarning ma'no turlariga qiyosiy tavsif bering.
42. Rus tilidagi ravishlarni sifatlardan farqlab turuvchi qanday morfologik ko'rsatkichlari bor?
43. Rus tilida kesim vazifasida keluvchi ravishlar qanday zamonlarda qo'llanadi?
44. Rus tilidagi bo'lishsiz ravishlar qanday morfologik vositalar yordamida yasaladi?
45. O'zbek va rus tillaridagi son turkumlariga qiyosiy tavsif bering.
46. O'zbekcha va ruscha sonlarning ma'no turlari o'rtasidagi o'xshash va farqli xususiyatlari haqida gapiring.
47. Rus tilidagi tartib sonlarning o'ziga xos xususiyatlarining aytib bering.
48. Rus tilidagi tartib sonlarda rod va kelishik kategoriyalari qanday ifodalanadi?
49. Tuzilishiga ko'ra o'zbek va rus tillarida sonlar qanday turlarga ajratiladi?
50. O'zbek va rus tillaridagi olmoshlarga qiyosiy tavsif bering.
51. Ikki til olmoshlarining ma'no turlari o'rtasidagi tafovutlarni tushuntiring.
52. Kishilik olmoshlarining ikki tilda turlanishini qiyoslang.
53. Ko'rsatish olmoshlarining so'zlar bilan birikishidagi farqlarni tushuntiring.
54. Rus tilidagi *сам, себя, свой* so'zlari bilan o'zbek tilidagi o'zlik olmoshi o'rtasidagi farqlarni aniqlang.
55. Faqat rus tiliga xos bo'lgan egalik olmoshlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
56. Har ikki tildagi fe'llarga xos bo'lgan umumiy grammatik kategoriyalar haqida gapiring.
57. Rus tilidagi tur (вид) kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
58. O'zbek tilidagi bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi rus tilida qanday ifodalanadi?
59. O'zbek va rus tillaridagi fe'llarning shaxs-son bo'yicha tuslanishida qanday farqlar namoyon bo'ladi?
60. O'zbekcha va ruscha fe'llarga xos zamon kategoriyasi haqida gapiring.
61. Rus tilidagi shaxssiz fe'llar o'zbek tilida qanday ifodalanadi?

62. O‘zbek tilidagi harakat nomi bilan ruscha infinitiv o‘rtasidagi farqlarni ayting.
63. O‘zbek va rus tillaridagi sifatdashlarning o‘xshash va farqli tomonlari haqida gapiring.
64. Rus tilida sifatdashning qanday zamon shakllari bor?
65. O‘zbek va rus tillaridagi ravishdoshlarga qiyosiy tavsif bering.
66. O‘zbek tilidagi ravishdoshlar ruscha ravishdoshlarda mavjud bo‘lmagan qanday imkoniyatlarga ega?
67. O‘zbek va rus tillaridagi ko‘makchilar o‘rtasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
68. Rus tilidagi predloglar o‘zi birikib kelgan so‘z bilan qanday moslashadi?
69. Rus tilida ham o‘zbek tilidagi kabi sof ko‘makchilardan tashqari, ko‘makchi vazifasida keluvchi mustaqil so‘zlar bormi?
70. O‘zbek va rus tillaridagi bog‘lovchilarga qiyosiy tavsif bering.
71. Rus tilidagi maxsus zamon bog‘lovchilari haqida gapiring.
72. O‘zbek va rus tillaridagi yuklamalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ayting.
73. Rus tilida ham o‘zbek tilidagidek so‘zga qo‘shib yoki chiziqcha bilan yoziladigan yuklamalar bormi?
74. O‘zbek va rus tillaridagi yuklamalarning ma’no bo‘yoqlariga qiyosiy tavsif bering.
75. O‘zbekcha va ruscha taqlid so‘zlar o‘rtasidagi tafovutlarni ayting.

### **Materiallar va adabiyotlar ro‘yxati**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Азизов О., Мирзаев М., Сафаев А., Бўрибеков А. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси: Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1965. 140 б.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек ва рус тилларини қиёслаш: Ўқув қўлланма. Т.: Ўзбекистон, 1993. 110 б.

#### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Абдуазизов А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. Т.: ЎЗМУ, 2010. 169 б.
2. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М.: Изд-во ИКАР, 2009. 448 с.
3. Асилова Г.А. Практикум по русскому языку: Учебное пособие. Т., 2014. 166 с.
4. Асилова Г.А. Русский язык: Учебник. Т.: Изд-во Нац.общ.филологов Узб-на, 2008. 240 с.
5. Asilova G., Qudriddinova N. O‘zbek tili: O‘quv qo‘llanma. T.: Yosh kuch, 2018. 210 b.
6. Asqarova M., Yunusov R., Yo‘ldoshev M., Muhamedova D. O‘zbek tili praktikumi: O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod-Moliya”, 2006. 304 b.
7. Горбунов Ю.И., Горбунов Е.Ю. Основы языкознания: Электронное учебное пособие. Тольятти: Изд-во ТГУ, 2017. – 1 оптический диск.
8. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси: Ўқув қўлланма. Т.: Фан, 2009. 224 б.
9. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. Назрань: ООО «Пилигрим», 2005. 376 с.
10. Морфология современного русского языка: Учебник / С.И.Богданов и др. СПб: СПбГУ, 2009. 634 с.
11. Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Лексикология ва фразеология. Т.: Ўқитувчи, 1969. 80 б.
12. Пўлатов А.Қ., Мўминова Т.П., Пўлатова И.О. Дунёвий ўзбек тили. 1-жилд. Т.: ЎЗМУ, 2003. 404 б.
13. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Т.: Фан, 1975. 609 б.
14. Ўзбек тили лексикологияси. Т.: Фан, 1981. 315 б.
15. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. Т.: Фан, 2010. 256 б.

### Internet saytlari

1. <http://testru.info/?p=334>
2. [https://licey.net/free/4-russkii\\_yazyk/42-kurs\\_russkogo\\_yazyka\\_uprazhneniya.html](https://licey.net/free/4-russkii_yazyk/42-kurs_russkogo_yazyka_uprazhneniya.html)
3. [https://licey.net/free/4-russkii\\_yazyk/](https://licey.net/free/4-russkii_yazyk/)
4. <http://rusyaz-online.ru/uprajnenija>
5. Лингвистический энциклопедический словарь - <http://www.tapemark.narod.ru>
6. Образовательный сайт - <http://www.bbclearningenglish.com>
7. Образовательный сайт - [http://www.libfl.ru/about/dept/reading\\_room\\_services/linguistics/links.php](http://www.libfl.ru/about/dept/reading_room_services/linguistics/links.php)
8. Образовательный сайт - <http://www.wikipedia.ru>
9. Образовательный сайт - <http://www.garshin.ru/website/best/top-ling.htm>

<b>O'qituvchining kontakt ma'lumotlari</b> –	gulshanasilova@gmail.com (97) 770 36 67
--	--

<b>O'qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti</b> –	chorshanba, juma kunlari soat 14.00 dan 16.00 gacha
--	--